

**O‘QUV JARAYONIDA INTERFAOL TA‘LIM METODLARINI QO‘LLASHNING  
AFZALLIKLARI****Jumakulov Abdumannon Kodirjonovich**Qo‘qon Universiteti Raqamli texnologiyalari va matematika kafedrası o‘qituvchisi  
[jumakulov19862106@gmail.com](mailto:jumakulov19862106@gmail.com)

**Annotatsiya:** Maqolada o‘quv jarayonida interfaol ta‘lim metodlari, ularning tasnifi va o‘quvchilarga ta‘lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlaridan foydalanish uslublari haqida batafsil ma‘lumot berilgan

**Kalit so‘zlar:** ta‘lim, zamonaviy ta‘lim, mustaqil o‘rganish, zamonaviy metodlaridan foydalanish uslublari, pedagogika.

Pedagogik faoliyatining eng muhim masalasi o‘quv jarayonini to‘g‘ri, samarali va sifatli tashkil etishdan iborat. Ta‘lim berishda turli xil metodlar mavjud. O‘qituvchi qaysi uslubda dars bermasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada, ta‘lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. O‘qitishda ta‘lim metodlari o‘zining samarasini ko‘rsatib kelmoqda va zamon muallimlari yangicha uslubda dars o‘tib eng yaxshi natijalar olishga intilmoqdalar.

Bugungi kunda zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta‘lim jarayonining samarasini oshiradi, o‘quvchilarning erkin fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilim olishga intilishi va qishiqishini ortiradi. Ta‘lim metodlarini qo‘llash orqali talabalar bilimlarini yaxshi o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil qo‘llay olish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Ma‘lumki, o‘qitish bilimlarni o‘zlashtirish va bilish yo‘llarini tushunishni o‘z ichiga oladi. Ta‘lim jarayonida bir qancha metodlar mavjud va bu metodlar o‘quvchilarning mavzuga oid bilimlarni samarali o‘zlashtirish darajalarini oshirishga yordam beradi.

O‘quv materialini o‘zlashtirishning bir necha darajalari mavjud:

- 1.Esga olish, xotirada tiklash – o‘zlashtirish darajasi;
- 2.Reproduktiv – o‘zlashtirish darajasi;
- 3.Produktiv (unumli) – o‘zlashtirish darajasi;
- 4.Ijodiy – o‘zlashtirish darajasi.

Esga olish, xotiraga tiklash - o‘zlashtirish darajasida har qanday o‘rganilayotgan materialni izohlash yoki asoslash uchun zarur bo‘lgan o‘quv materialining o‘zlashtirilishidir. Bu materialdagi hodisalar yoki voqealar bir–biri bilan bog‘lanishda va rivojlanishda bo‘lib, albatta avvalgi o‘rganilganlariga asoslanadi, hamda uni takrorlash va esga olish yoki xotiraga tiklash lozim bo‘ladi. Buning uchun materialni bayon qilishda ko‘rgazmalilikdan foydalaniladi.

Reproduktiv – o‘zlashtirish darajasida bir turdagi masala yoki mashqlar (savollar)ni namunaga(tayyor yechib ko‘rsatilgan) qarab yecha olishga mo‘ljallangan o‘quv materialiga aytiladi.

Produktiv(unumli) o‘zlashtirish darajasi deganda nostandart (standart bo‘lmagan, namunasi bo‘lmagan yoki namunaga o‘xshash bo‘lmagan), ya‘ni berilgan turdagi mashq bilan bir xil turda bo‘lmagan vazifalarni o‘zlashtirishga aytiladi. Bunday materialni o‘zlashtirish uchun o‘quvchilarning ma‘lum darajada o‘ylashlari va fikrlashlari talab qilinadi.

Ijodiy o‘zlashtirish darajasi(yoki qisman ijodiy) o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini turli holatlarda tatbiq eta olish, masala yechishning turli yo‘llarini izlash(o‘qituvchi ko‘rsatmagan, aytmagan metodlar)ni qo‘llashga asoslangan o‘quv materialiga aytiladi.

Yuqorida keltirilgan esga olish va xotirada tiklash, reproduktiv, produktiv va ijodiy o‘zlashtirish hamda ta‘lim maqsadlari birlashib kompleks holda keladi.O‘quv materialini o‘zlashtirish darajalariga erishish uchun ta‘lim jarayonida bir qancha metodlardan foydalaniladi.

Interfaol ta‘lim – talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan ahloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lidagi o‘zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta‘lim.

Interfaollik talabalarning bilim, ko‘nikma, malaka va muayyan ahloqiy sifatlarni o‘zlashtirish yo‘lida birgalikda, o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakatni tashkil etish layoqatiga egaliklari.

Mantiqiy nuqtai nazardan interfaollik, eng avvalo, ijtimoiy sub’ektlarning suhbat (dialog), o‘zaro hamkorlikka asoslangan harakat, faoliyatning olib borishlarini ifodalaydi. Ta‘lim sohasida faoliyat yuritayotgan har bir mutaxassis yaxshi biladiki, an’anaviy ta‘lim ham suhbat (dialog) ga asoslangan va bu suhbat quyidagi o‘zaro munosabat shakllarida tashkil etiladi.

Interfaol ta‘lim texnologiyalari mohiyatiga ko‘ra suhbatning “talaba – axborot-kommunikatsion texnologiyalar” shaklida tashkil etilishi talabalar tomonidan mustaqil ravishda yoki o‘qituvchi rahbarligida axborot texnologiyalari yordamida bilim, ko‘nikma, malakalarning o‘zlashtirilishini anglatadi.

**“Bilaman. Bilishni xohlayman. Bilib oldim” (BBB)** - talabalarga muayyan mavzular boyicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Uni qo‘llashda talabalar guruh yoki jamoada ishlashlari mumkin. Guruhda ishlashda mashg‘ulot yakunida guruhlar tomonidan bajarilgan ishlar tahlil qilinadi.


#### **“BBB” JADVALI**

| <b>Bilaman</b>                                | <b>Bilishni xohlayman</b>  | <b>Bildim</b>  |
|---|--|--|
| - <b>Operatsion tizim tushunchasi</b>         | - Linux<br>- Unix  | - Linux<br>- Unix  |
| - <b>Windows, MSDOS</b>                       | - Meynfreymlar   | - Meynfreymlar   |
| - <b>Dasturiy modullar, Fayl, Fayl tizimi</b> | - Serverlar<br>- Real vaqt OT<br>- Maxsus OT<br>- Ko‘p protsessorli OT | - Serverlar<br>- Real vaqt OT<br>- Maxsus OT<br>- Ko‘p protsessorli OT |

#### **“Venn diagrammasi”**

“Venn diagrammasi” - talabalarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o‘zlashtirish (sintezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema boyicha amalga oshiriladi.

Grafik organayzerlar talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan o‘zaro yaqin nazariy bilim, ma‘lumot yoki dalillarni qiyosiy tahlil etishga yordam beradi. Undan muayyan bo‘lim yoki boblar boyicha yakuniy darslarni tashkil etishda foydalanish yanada samaralidir.



Dars jarayoni bu tarzda interfaol ta‘lim metodlari asosida tashkillanishi o‘quvchining materiallarni eslab qolish darajasini oshiradi. Bunday bosqichda odatdagi jarayonlardan tashqari kichik guruhlarni shakllantirish, aqliy yoki harakatli o‘yinlar o‘tkazish, dars maqsadlarini muhokama qilish, lozim topilsa uni talabalar taklifini e‘tiborga olgan holda takomillashtirish hamda yakdillik bilan qabul qilinishiga erishish, yangi materialni o‘rganishga oid o‘quv mativlarini shakllantirish tavsiya etiladi.

Demak zamonaviy dars olib borishda o‘qituvchi aktivligi kamayib talabalar faolligi oshadi. Bu bilan talabalarni mustaqil o‘qib o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. A.Abduqodirov, F.A.Astanova, F.A.Abduqodirova. “Case-study”: nazariya, amaliyot va tajriba. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: “Tafakkur qanoti”, 2012. 132 bet.
2. A.A.Abduqodirov, F.A.Astanova, F.A.Abduqodirova. Case-study uslubi: nazariya, amaliyot va tajriba. -T.: “Tafakkur qanoti”, 2012, -134 bet.
3. A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev. Ta‘lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uslubiyoti. -T.: “Tafakkur”, 2014, -367 bet.
4. A.A.Abduqodirov, A.X.Pardayev. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. -T.: “Fan”, 2009, -146 bet.
5. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat - T.: TDPU, Nizomiy, 2003.
6. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Metodik qo‘llanma. -T.: “TDPU”, 2013, -116 bet.